

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK VA TURK ADABIYOTIDA ADABIY ALOQALARNING TARAQQIY TOPISHI

Muqaddas Tojiboyeva

ADU, filologiya fanlari doktori, professor

No‘monova Ro‘zaxon No‘monjon qizi

NamMTI tayanch doktoranti

E-mail: nomonovaroza2@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XX asr o‘zbek va turk adabiyoti o‘rtasida adabiy aloqalar keng yo‘lga qo‘yilganligi, ikki adabiyot she‘riyatida ham uchraydigan o‘xshashliklar, bu aloqalarning jadid she‘riyatida o‘rni va ahamiyati nechog‘lik muhimligini haqida so‘z boradi. Shu manbalar asosida milliy uyg‘onish davri adabiy-siyosati ilmiy tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti, jadidlar harakati, adabiy-siyosat, adabiy aloqalar, adabiyot, mustamlaka, ozodlik.

РАЗВИТИЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ СВЯЗЕЙ В УЗБЕКСКОЙ И ТУРЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация: В статье рассказывается о широком установлении литературных связей между узбекской и турецкой литературой XX века, о сходстве, которое можно найти в поэзии двух литератур, о роли и значении этих связей в поэзии джадидов. На основе этих источников проводится научное исследование литературно-политической жизни национального возрождения.

Ключевые слова: узбекская литература национального возрождения, джадидистское движение, литературная политика, литературные отношения, литература, колонизация, свобода.

PROGRESSIVE DISCOVERY OF LITERARY TIES IN UZBEK AND TURKISH LITERATURE AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Annotation: the article talks about the broadening of literary ties between Uzbek and Turkish literature of the 20th century, the similarities found in the poetry of both literature, the role and importance of these ties in jadid poetry. On the basis of these sources, a scientific study of the literary and politics of the national renaissance is carried out.

Keywords: national renaissance Uzbek literature, Jadid movement, literary-politics, literary relations, literature, colonization, liberation.

KIRISH. Dunyoda vaqt o‘tgan sari barcha millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar u yoki bu ko‘rinishda rivojlanib boradi, bosqichdan boshqichga o‘tadi. Bu hodisalar va jarayonlar insoniyatning o‘zi kabi qadimiydir. Moziyga nazar tashlar ekansiz, tarix sahnasida paydo bo‘lgan xalq borki, eng avvalo, o‘ziga hududiy va ma’naviy yaqin bo‘lgan elatlar bilan turli jabhada aloqa o‘rnatganligini ko‘ramiz. Ayni damda bu narsa fanda ham, adabiyotda ham o‘z ko‘rinishiga ega, ya’ni kamida ikki adabiyotda mavzu, go‘ya yaqinligi yohud o‘xshashligini uchratish juda noyob hodisalardan biridir. Xususan, o‘ziga xos taraqqiyot jarayonidagi xalqlarning ozodlikka yo‘naltirilgan maqsad, intilishlarida ham xuddi shunday chambarchas bog‘liqliklarni his etishimiz mumkin. Bu ayniqsa, dini, tili, urf-odatlar, dunyoqarashi yaqin millatlarda yanada kuchliroq seziladi. Xalqaro aloqaning behad jozibador shakllaridan biri bo‘lgan o‘zaro adabiy aloqalar misolida ham o‘zgacha go‘zallik va nafosatni ko‘rishimiz mumkin. Hatto turli ijtimoiy o‘zgarishlar, siyosiy ziddiyatlar davrlarida ham mushtarak adabiy an’analar o‘z mohiyatini yo‘qotmagan. Tabiiyki, bu ezgu hol xalqlarning iymon-e’tiqod yo‘sini, turmush-muhit tarzi hamohangligi bilan izohlanadi. Aytish mumkinki, taraqqiyotning shunday ajib qonuniyati sababli uzoq o‘tmishdan o‘tib kelgan “To‘nyuquq”, “Kul Tegin”, “Bilga xoqon” bitiklari, badiiy namunalar umumturkiy obidalar, barchaturkiy millatga xos bebaho meros sanaladi. Mana shunday tarixiy jarayon sababli bugungi turkiy millatlar o‘tmishdagi o‘nlab allomalari ijodlaridan birdek iftixor hissini tuyadilar. Ildizi bir bo‘lganligi sababidanmi, turkiy xalqlar adabiyotidagi aloqalar faqat taraqqiy etib borganligini guvohi bo‘lamiz. Ularning asarlari ruhida ardoqli milliy qadriyatlar tarannumi va umuminsoniy g‘oyalar tajassumi kuylanganini ko‘ramiz. Bunda ayniqsa, XX asr adabiyoti o‘zbek va turk she’riyatini tilga olmaslikning iloji yo‘q. bu davr adabiyoti, xususan poeziyasi o‘zining novatorligi bilan ajralib turadi. Ham uslub, ham, yo‘nalish, ham mavzu va lirik qahramon masalasidan ham yangilanishlar yuzaga keladi. Tabiiyki, ijtimoiy-siyosiy muhit o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Tubanda jadid namoyandalari va turk shoirlari ijodidan parchalarni tahlilga tortib, yuqoridagi fikrlarimiz dalolatini keltiramiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

XX asr boshidagi butun turkiy davlatlarda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarning hammasi o‘z navbatida bu davrdagi o‘zbek adabiyotining g‘oyaviy-tematik yo‘nalishi, yozuvchi va shoirlarining g‘oyaviy-siyosiy qarashlariga ham ta’sir ko‘rsatmasdan qolmagan. Qarangki, ikki davlatda ham adabiyot va san’at vakillariga, so‘z erkinligiga, umuman ularning ijodlariga nisbatan bosim va ta’qiq ayni edi. Masalan, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining shu yillardagi birinchi kotibi Akmal Ikromovning 1927 yil oktyabr oyida “Mafkura uchun kurash va bunda madaniyatchilarning vazifalari” mavzusida qilgan ma’ruzasida partiyaviy-sinfy pozitsiyadan kelib chiqqan holda Munavvar qori kabi jadidlar faoliyatini, Cho‘lpon asarlarini va unga g‘oyaviy jihatdan yaqin turgan Nomiq Kamol, Tavfiq Fikrat asarlarini qattiq tanqid qiladi. Ularning asarlarini asosan vatanparastlik burjuaziya ideologiyasi yoqlab yozilgan zararli asarlar sifatida talqin qiladi. Natijada, Nomiq Kamol,

Tavfiq Fikrat singari turk yozuvchi va shoirlarining bu davrga kelib istiqloqlilik, umuminsoniy va vatanparvarlik ruhidagi asarlari ayrim kimsalar tomonidan g‘oyaviy zararli asarlar sifatida ko‘rsatila boshladi. Bu holat bizga Turkiston o‘lkasida millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otmoqqa urinayotgan jadidchilarimizga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatni eslatadi. Bu tazyiq va cheklovlarga qarshi ular faqat so‘z bilan, qalam bilan javob qaytara olardilar va bu eng tog‘ri yo‘l edi. Jadidchilar erkka erishish uchun avvalo xalqni savodli, ilimli qilmoq kerakligini erta angladilar, shu boisdan o‘z she‘rlarida yosh o‘sib kelayotgan avlodni bunga targ‘ib qildilar, bu yo‘lda qancha to‘siq va qarshilikka yo‘liqmasinlar, qaytmadilar. Natijada M.Behbudiy, M.So‘fizoda, Hamza, Fitrat, A.Avloniy, Tavallo, Cho‘lpon va boshqalarning asarlarida o‘zlarigacha bo‘lgan (XV-XIX asrlar) ijodkorlarning asarlaridagi adolatparvarlik, ma‘rifatparvarlik to‘g‘risidagi fikrlari yangi tarixiy-madaniy sharoitdagi o‘zgarishlar nuqtai nazaridan rivojlantirildi, ular o‘lkadagi qoloq ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilash, xalqni jaholat va xurofotdan qutqarish uchun zamonaviy ta‘lim va tarbiya bilan bog‘liq masalalarni targ‘ib va tashviq qiladilar, bu boradagi qarshilik va to‘siqlarga qarshi matbuot va adabiyotda faol ish olib bordilar. Bunda , albatta, turk adabiyoti vakillarining ta‘siri cheksiz edi. Jadid adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, ularning ko‘pchiligini turk shoirlari ijodiga befarq bo‘lmaganliklarini ko‘ramiz. Xususan, yirik jadid shoiri, olim A.Fitrat o‘zining “Tanlangan asarlar”i, “Aruzning bizning tilga yaramag‘anlig‘i qismida Tavfiq Fikrat she‘rlariga muosabat bildirib o‘tadi: “Netaykim: usmonli shoir Tavfiq Fikrat “Yog‘mur” otli tizmasida faulun, faulun, faulun, faul vaznida yozadur. Bu vaznda esa yog‘murning ohangiga o‘xshash singarlarni “g‘avsatg‘uchi, bo‘shatg‘uchi biro hang bordir” deb aytalar”¹⁶⁷

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Bu davr adabiyotining yirik vakillaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon turk shoirlari ijodidan zavq olishini o‘z esdaliklarida yozib qoldirib, hatto ularning ayrimlariga munosabat ham bildirib o‘tgan. Xususan, uning Usmonli adabiyotining atoqli shoiri Tavfiq Fikrat haqida shunday so‘zlari mavjud:

“Usmonlilarning «adabiyoti jadida» (yangi adabiyot)chilarining pir va ustoz bo‘lgan Tavfiq Fikratbek butun yangi nasl turklarning yuraklarina go‘zal, nafis va latif she‘r buketlari qadamishdir. Uning keng xayoli ravon (tez) va yengil ifodasi kimni, qaysi bir she‘r va adabiyot muhibini tasxir etmas? Xususan uning «Rubobi shikasta» (siniq dutor)si, undagi baland va latif yo‘llar naqadar jozibali va zavqli narsalardir!”¹⁶⁸

Bu ta‘rifdan anglashimiz mumkinki, Cho‘lpon T.Fikrat ijodi bilan to‘liq tanish va undagi yo‘nalish va uslublarni ma‘qullaydi.

Soy og‘ir oqadir, to‘lg‘unmi, bilmam,
Oy og‘ir xastami, so‘lg‘unmi, bilmam,
Baxtsiz bir kelinday mahzunmi, bilmam,
Tog‘larin boshida qora tul* bordir.

¹⁶⁷ A.Fitrat.Tanlangan asarlar. Toshkent. “Ma‘naviyat”2009.36-b

¹⁶⁸ A.Cho‘lpon.“Marhum Tavfiq Fikrat haqinda” Ishtirokiyun.1920.

U yerda eng go‘zal chog‘ o‘tdi, deyman,
Eslab u kunlarni bugun inglayman,
Umrin dostonini o‘qib, tinglayman,
Ichimda u yerlik bir bulbul bordir.

T.Fikratning “Uching, qushlar” she‘ridan olingan yuqoridagi misralar bilan quyida Cho‘lponning “Go‘zal”she‘ridan keltirilgan parchani qiyosini ko‘raylik!

Ko‘zimni olamen oy chiqqan yoqqa,
Boshlayman oydan-da seni so‘rmoqqa.
Ul-da aytadir: bir qizil yanoqqa
Uchradim tushimda,ko‘milgan oqqa.
Oqqa ko‘milganda shunchalar go‘zal,
Mendan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal

Ikki she‘riy parchada ham jonlantirish vositasida mualliflar jonsiz narsalarni harakatga keltirganligini, bir xil holat, o‘xshash kechinmani ifoda etganlarini ko‘ramiz, ya‘ni har ikkala yurtda ham xalqning ahvoli achinarli, insonlar erk, ozodlik, hurriyat havosini tuymoq uchun najot qidirmoqdalar. Lekin , “Tog‘larin boshida qora tul* bor”, yorug‘lik umidida so‘roqqa tutilgan oy ham ozodlikni faqat ro‘yosidagina uchratgan xolos: ”Uchradim tushimda, ko‘milgan oqqa”. Demakki, qachonki yurt boshidan qora ko‘lanka arisa, keyin o‘kada hurriyat shamollari esa boshlaydi.

“Turklarning uch inqilobchi shoirlaridan biri” sifatida e‘tirof etilgan Namiq Kamol ham o‘z she‘rlarida hurriyat erki, vatan ishq va nohaqlikka qarshi kurash tuyg‘ularini keng ko‘lamda kuylagan, bu hislarni millat qalbiga, ongiga singdirishga uringan. Uning :

Jumlamizning validamizdir Vatan,
Har kimni lutf ila udir asaragan,
Bosdi adu ko‘ksina biz sog‘ ekan
Arsh yigitlar Vatan imdodiga.¹⁶⁹
misralari jadidchi shoirimiz A,Avloniyning
O‘tar kunlar, o‘tar zamon,
Ey,Vatanim, bo‘lma hijron!
Men ketsam-da,sen bo‘l omon!
Omon Vatan,vatan omon!¹⁷⁰

bandini o‘z ichiga olgan “Hijron so‘zi” she‘rini yodimizga soladi. Guvohi bo‘lganimizdek, ikki she‘rda ham lirik qahramon, uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit, ruhiyati va qalb kechinmalari bir - biriga mengzaydi. Bu jihatdan, ayniqsa, Abdulla Avloniyning “Dunyo fojiasidan” she‘ri bilan turk shoiri Tavfiq Fikratning “Tarixi qadim” she‘rlarini qiyoslash ham samarali bo‘lib, ularning hammasini o‘rinsiz qon to‘kish va jabr-sitam, haqsizlik, zulmga qarshi keskin norozilik va nafrat, mazlumlar holiga behad achinish va shafqat singari mushtarak

¹⁶⁹ Elman Quliyev. Turkiy xalqlar adabiyoti. Toshkent.“Renessans press”.2022.128-b

¹⁷⁰ A.Avloniy. Tanlangan asarlar,ikki tomlik. “Ma‘naviyat”.,T.,1998-y

insonparvarlik o‘zaro birlashtirib turadi. Masalan, Abdulla Avloniyning “Dunyo fojiasidan” (1911) she’rida ifodalangan afsus va nadomat ohanglari shu davr o‘zbek va turk shoirlari uchun mushtarakdir. Balki shu o‘xshashliklar, yaqinliklar tufaylidir, T.Fikrat, N.Kamol va boshqa turk shoirlarining asarlari o‘zbek tiliga keng miqyosda tarjima qilindi. O‘zbek kitobxonlari qo‘liga tuhfa o‘laroq yetib keldi. Ayrim she’rlari asosida qo‘shiqlar yaratildi. Hatto, jadidchilarimiz turk shoirlari haqida maqolalar ham yozdilar(A.Cho‘lpon “Marhum Tavfiq Fikrat” 1920).

Quyida T.Fikratning :

O‘qing, o‘qiganlar

Ko‘p narsani bilar, ko‘p ishni qilar,

Murodiga ular yetar

Jannatga ham ular kirar

Ular chindan baxtiyor bo‘lar...

she’rida ta’kidlanganidek, ilmi inson ham dunyosini, ham oxiratinini go‘zallshtiradi. Avvalambor, ilm egallash orqali o‘zligini taniy biladi va nihoyatida “Murod” – ozodlikka erishadi. Huddi shu she’rning davomidek yozilgan A.Avloniyning:

Biling, o‘g‘lonlarim, sizlarni g‘amdan qutqarur maktab,

Siroti mustaqim, rohi adamdan qutqarur maktab,

Maishat bobida ranju alamdan qutqarur maktab,

Hayotu ruha dushman jahli samdan qutqarur maktab,

Qo‘lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab.

Shahodatnomai firdavsi g‘ilmonni berur maktab.

misralarini o‘qir ekanmiz, ikki millat adabiyoti o‘rtasida qanchalik yaqinlik va bir-biridan zavqlanish, ta’sirlanish mavjudligini yana bir bor guvohi bo‘lamiz. To‘g‘ri, ba’zi davrlarda bu adabiy aloqalarga siyosiy chegara qo‘yildi, lekin vaqt o‘tib bu do‘stlik yanada rivojlandi, taraqqiy topdi. Zero, adabiyot, yashar ekan, millatlar orasidagi aloqalar davom etib boraveradi, bu faqat insoniyatning har jihatdan rivojiga, yuksalishiga sabab bo‘ladigan hodisadir.

XULOSA

Xullas, jadidlar milliy istiqlol uchun kurashishdi. Ozod va hur davlat qurishni maqsad qilishdi. Jamiyat hayotining yaxshilashuvi va yangilanishi yo‘lida o‘zlarining ijtimoiy va adabiy faoliyatlari bilan xizmat qilishdi. Adabiy-siyosiy muhitda faol qatnashishdi. Ular mustaqil davlatni barpo etish g‘oyasini amalga oshirishga kirishishdi, ammo bu harakat kuchli va birlashgan partiya yo tashkilotga ega bo‘lmaganligi hamda xalq ommasini hali uyg‘ota olmaganligi sababli ularning mustaqil o‘zbek davlatini barpo etish orzusi ro‘yobga chiqmadi. Lekin, ta’kidlash lozimki, bu orzu va umid, kelajakka bo‘lgan ishonch tuyg‘ulari ularning ijodida davom etib keldi, millat yoshlari shuuriga singgib bordi, va nihoyat o‘z mevasini berdi ham.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: “О‘ZBEKISTON”НМИУ, 2008 й;
2. Ibragimov, S.E., (2021). JADIDCHILIK HARAKATI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,
3. Karimov N., Mamajonov S. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. –T.: «O‘qituvchi», 1999.
4. Milliy uyg‘oniy davri o‘zbek adabiyoti. Hammualliflar: Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizaev, Sunnat Ahmedov. Toshkent: “Ma’naviyat”;
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T. Ma’naviyat. 1998. 82-b
6. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. Toshkent. 1991. 492-b
7. Numonova Ruzaxon Numonjon qizi” CHARACTERISTICS OF THE USE OF METAPHORICAL AND PHRASEOLOGICAL IMAGES IN THE WORK OF ART” World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 21, April, 2023 ISSN: 2749-361X
8. Nomaniva Ruzakhon Nomonjon kizi, Mukaddas Abdurakhimovna Tadjibayeva “THE EXPRESSION OF THE IDEA OF ENLIGHTENMENT IN THE POETRY OF HAMZA HAKIMZODA”//ACADEMICIA: An International multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 11, November 2020. 1272-1276
9. Rozakhon Nomonova. LINGUOCULTURAL FEATURES OF SOME PHRASES USED IN "SATAN" Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022: 5.908 journal homepage: <https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>
10. UO‘K 808.5BADIY MATN TAHLILINING ASOSIY YO‘NALISHLARI R. No‘monova, A. Shodiyeva, Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. - №11/4 (95), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 216 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56> ISSN 2091-573 X/ 60-64